“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2024-yil 24-oktabr kuni soat 17:00 da o‘tkaziladi.

https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/meeting-202410241700

“O‘ZKIMYOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2024-yil 24-oktabr kuni soat 17:00 da masofadan turib axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron ovoz berish “eVote” platformasi orqali o‘tkaziladi.

KUN TARTIBI:

1. “O‘zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi sanoq komissiyasi a’zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.

2. “O‘zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.

3. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ ustav kapitalidagi “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli 100 foiz aksiya paketini Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o‘tkazish.

Umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlar reyestrini shakllantirish sanasi: 2024-yil 2-oktabr holatiga.

Umumiy yig‘ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar ro‘yxati 2024-yil 18-oktabr holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reyestriga asosan tuziladi.

Umumiy yig‘ilish qatnashchilarini ro‘yxatga olish internet tizimi orqali elektron ovoz berish xizmatidan (http://evote.uz/) foydalangan holda, 2024-yil 24-oktabr kuni soat 16:00 da boshlanib, soat 17:00 gacha davom etadi.

Umumiy yig‘ilishda ishtirok etish va ovoz berish tartibi Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan e-Vote elektron ovoz berish xizmatidan foydalanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Umumiy yig‘ilishda shaxsan ishtirok etish uchun aksiyadorlar o‘zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan qatnashishlari so‘raladi.

Umumiy yig‘ilishni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo‘lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko‘chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98. E-mail: info@uks.uz

“O‘zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashi